

## TURKISTONDAGI IJTIMOYIY JARAYONLARDA JADIDLARNING TUTGAN O'RNI VA ROLI

Hayitova Dildora Ziyodullo qizi

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida taraqqiyparvar ziyolilarning islohotchilik harakati — jadidchilik vujudga keldi. Jadidlar ta'limoti — o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti bo'lib, bu haqida filolog olim, professor Begali Qosimov "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli kitobida quyidagicha fikr bildiradi: "... Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayonni tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini, anglab etdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar.<sup>7</sup> Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri sifatida xalqning turmush tarzini, ijtimoiy hayotini yaxshilash bo'lgan. Ular bu yo'lda quyidagi ishglarni amalga oshirish orqali erishish mumkin deb hisoblagan:

- xalqni ma'rifatli qilish orqali ularning turmush tarzini yaxshilash;
- g'oyaviy-siyosiy jihatdan etuk, kelajakni oldindan ko'radigan yoshlarni tarbiyalash;
- kishilarning tibbiy savodxonligini va bilim saviyasini ko'tarish;
- xalqning kambag'al qismiga moddiy ko'maklar tashkil qiluvchi insonlarni fikr doirasini o'stirish.

Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906 yil 27 iyun kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan "Taraqqiy" gazetasi hisoblanadi. Gazeta chiqishi munosabati bilan Ismoilbek G'aspirali, Abdulla To'qaylardek yirik taraqqiyparvarlar tabriknomalarini yo'lladilar, Munavvar qori, Avloniyning maqolalari bu gazetani xalq o'rtasida yanada mashhur bo'lishiga yordam berdi<sup>8</sup> "Taraqqiy" gazetasining dastlabki nashrida muharrir I. Obidiy "Toshkent 14 iyun" nomli maqolasida barcha Turkiston musulmonlarini birdamlikka chaqiradi, o'zaro kelishmovchiliklarga barham berishga undaydi va shunga muvofiq gazetaning shiorini "Najot: maslakda sabot; to'g'rilikni ijobat" deb nomlaydi. Muallif mazkur maqola orqali xalqni bir butun yaxlit kuch bo'la olishini, millatning millat sifatida taraqqiy etishida birdamlik va ilm-ma'rifat yagona yo'l ekanligi ta'kidlaydi. I. Obidiy Rossiya imperiyasida bo'layotgan inqilob va kurashlar natijasida joriy etilayotgan demokratik islohotlardan ilm-ma'rifatli xalqlargina foydalana olishi mumkinligini tahlil qiladi. Gazetxonlarga "Taraqqiy"ning chop etilishi uchun ruxsatnomaning olinishi ham aynan hurriyat bergan erkinliklar samarasi bo'ldi, deydi muallif. Muharrir I. Obidiyning maqolasida ilgari surilgan g'oyalar Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan iliq qarshi olinadi. "Ayniqsa,

<sup>7</sup> Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. —B. 43

<sup>8</sup> Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Ma'sul muharrirlar: B.Хасанов, Н.Каримов. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. —B.87

gazeta mazkur sonining 2–3 betlarida Munavvar qori Abdurashidxonovning “Bizning jaholat — jahli murakkab” maqolasi bosilgan. Maqolada “Eski maktab” deb ataluvchi an’anaviy musulmon maktabidagi o’qitish tizimi keskin tanqid qilinib, uni isloh etish taklifini ilgari suriladi. Gasprinskiyning Turkistondagi eng yaqin hammaslagi Behbudiy esa quyi va yuqori maktabning isloh etilishi millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, millatning isloh etilishi bu milliy g’oya bo’lib, uni barcha targ’ib qilishi kerak<sup>9</sup>

SHuningdek, kerakmas irim-sirimlar, ortiqcha ovoragarchiliklar o’rniga farzandlarga diniy va dunyoviy bilimlar berish, ularda mavjud qobiliyatlarni aniqlab chet mamlakatlarda ta’lim olib kelishga undaydi. “SHuhrat” gazetasi “Taraqqiy”, “Xurshid” qabi maktab, ta’lim, ilm-fan haqida maqolalar chop etadi. 1908 yil 23 yanvarda “Turkiston maktablari” nomli maqola chop etiladi. Maqolada Rossiyaning Kuba, Oringburg, Qozon, Ufa va Buba shaharlaridagi madrasalarda darslar usuli jadid bilan o’qitilayotgani Turkiston o’lkasidagi maktab va madrasalarda ham shu usulda darslarni boshlash kerakligi haqida so’z boradi. Maktablarda sharoitni yaxshilash, o’qituvchilarni moddiy mablag’ bilan ta’minlab borishlari uchun mahalliy millatdan chiqqan boy va amaldorlarga murojaat qiladi: “Zar yoqali to’n va medal olmoq uchun qilg’on g’ayrat va himmatlaringizni o’n hissadan birgina hissasini bo’lsa ham, millatka va millat bolalariga sarf qilingan!... “Tujjor”, 1907 yil 21 avgustdan Said Azimboy, Said Karimboylar muharrirligi ostida nashr qilina boshlaydi. Gazeta savdo bilan shug’ullanadigan toifa odamlari uchun mo’ljallangan. Muharrir gazetaning birinchi sonida nashr qilinadigan mavzular haqida shunday yozadi: “Taraqqiy” va “Xurshid” kabi “Tujjor”ni hukumat to’xtarut deb hech bir xavf etmasun. Chunki “Tujjor”ning siyosiy va maishiy maslagi “Taraqqiy” va “Xurshid” maslagi kabi hukumatga qarshu va xilof emasdur. Balki Rossiya davlatining do’sti tarafchisidir. Mazkur gazeta butun Turkiston o’lkasida bo’layotgan savdo-sotiq masalalarini, narxlar haqida ma’lumotlar berib boradi. O’z navbati vaqti-vaqti bilan jadidlarning maktab masalalariga oid ayrim maqolalari ham chop etilib turadi<sup>10</sup>. “Taraqqiy” hukumat tomonidan hech qanday tazyiqqa uchramadi, aksincha gazetaga bo’lgan talabgorlarning kamligi sababli o’z faoliyatini to’xtatishga majbur bo’ldi. Yana bir gazeta “Osiyo” 1908 yil Ahmadjon Bektemirov muharrirligida nashr qilina boshlaydi, ammo beshinchi sondan keyin hukumat tomonidan tugatishga majbur qilinadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Turkiston jadidlari millatni jisplashtiruvchi, yagona yo’lga boshlovchi milliy g’oyani Ichki Rossiya musulmonlaridan olgan bo’lsalar-da, mahalliy voqelikka moslagan holda qayta shakllantirdilar. Turkiston jadidlari boshlang’ich pallada ta’lim, zamonaviy bilimlar targ’ibi hamda mahalliy aholining turmush sharoitini o’zgartirishga qaratilgan dastur asosida ish olib bordi. Aynan mana shu masalalar

<sup>9</sup> Абдирашидов З. Туркiston жадидлари ва миллий ғоя тарғиботи. “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзuidaги Республика илмий-амалий анжумани материаллари 2016 йил 15 апрел. –Б.26

<sup>10</sup> Махмудова Г. Т. Туркistonда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлокий-эстетик фикр тараққиётига таъсири / фалсафа фанлари номзоди — Тошкент. 1996 — 158 б

jadidlarning milliy g'oyasi asosini tashkil etdi. Milliy g'oya targ'iboti asosini tashkil etuvchi xayriya muassasalarining to'laqonli faoliyatiga bir tarafdin mahalliy savdogar va ishlab chiqaruvchilar sinfining sustligi, ikkinchi tarafdin atrofdagi mamlakatlardagi siyosiy vaziyat hamda chor hukumatining o'lkada olib borgan siyosati to'sqinlik qildi. Turkistonda milliy matbuot va xayriya muassasalarining faoliyati jadidlarning milliy g'oya borasidagi harakatlarini mahalliy jamiyatning turli qatlamlari orasida u qadar tayanch topa olmaganligini ko'rsatdi. SHunday bo'lsa-da, matbuot va adabiyot orqali jadidlar musulmon aholisi o'rtasida oz bo'lsa ham zamonaviy bilimlarni egallashga, jamoat ishlarida qatnashishga bo'lgan qiziqishni uyg'ota oldi.

#### ADABIYOTLAR :

<sup>1</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Тошкент: Маънавият, 2002. —Б. 43

2Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Маъсул муҳаррилар: Б.Ҳасанов, Н.Каримов. — Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. —Б.87

3Абдирашидов З. Туркистон жадидлари ва миллий ғоя тарғиботи. “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзудидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари 2016 йил 15 апрел. — Б.26

4Маҳмудова Г. Т. Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири / фалсафа фанлари номзоди — Тошкент. 1996 — 158 б